

# SAYYORAMIZDAGI ODAM OYOG'I YETMAGAN JOYLARDAN BIRI “UYG'ONISH OROLINI” ASRAYMIZ



*Sayg'oqni saqlash bo'yicha Alyansning yangi dasturi*

**UYG'ONISH OROLI**

## Uyg'onish oroli haqida

Uyg'onish oroli Orol dengizida, Qozog'iston va O'zbekiston chegarasida joylashgan. Sovet Ittifoqi davrida bu hudud juda kuchli o'zgargan.

Orol dengizi 1950-yillarda boshlangan keng ko'lamli sug'orish dasturlarini amalga oshirish maqsadida unga suv quyuvchi ikki yirik daryolar suvi yo'nalishining o'zgartirilishi natijasida, deyarli butunlay yo'q bo'lib ketdi (uning o'rniда yangi cho'l paydo bo'ldi). Natijada yuzaga kelgan Orol dengizingin tanazzulga yuz tutishi, hozirda dunyodagi eng katta antropogen ekologik ofatlardan biri sifatida tan olingen. Uyg'onish oroli endi orol emas, u qalin qum qatlami bilan qoplangan ochiq dengiz tubi bilan o'ralgan. Dengiz tubida deyarli o'simlik yo'q, kuchli chang bo'ronlari muntazam ravishda butun mintaqaga pestisidlar bilan aralashgan dengiz tuzini tarqatadi, bu esa inson salomatligi, qishloq xo'jaligi va yovvoyi tabiatga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga qaramay, Uyg'onish orolining faunasi hali ham boylichcha saqlanmoqda. Ororda hayvonlarning 130 ga yaqin turlari uchraydi jumladan, sayg'oq, qoraquloq, O'rta Osiyo toshbaqasi, qironqora, cho'l miqqysi va flamingo. Bu turlarning barchasi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Qizil ro'yxati va O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan. Uyg'onish orolining florasi 123 tur o'simlikni o'z ichiga oladi. Mintaqa cho'llaridan deyarli yo'qilib bo'lgan ba'zi o'simlik jamoalarini Uyg'onish orolida hamon saqlanib qolgan. Hatto atrof-muhitni jiddiy inqirozga uchrashi sharoitida ham bu yerdagи hayot taraqqiy etishda davom etmoqda.


Uyg'onish orolida, Sovet ittifaqining biologik qurollarni sinash maxfiy poligoni bo'lgan. Kontubek shaharchasida 1948 yildan 1992 yilga qadar 1500 nafar laboratoriya xodimlari va harbiylar oilalari bilan yashagan. O'zbekiston 2018-yildan boshlab orolining uchdan ikki qismiga tashrif buyurish xavfsiz ekanligini e'lon qildi. Shundan so'ng jurnalistlar va boshqa mehmonlar u yerga sayohat uchun tashrif buyuradi.



## Biz biologik xilma-xillikni tiklashga yordam beramiz

**Bizning Uyg'onish orolidagi ulkan dasturimiz bu orolini qo'riqlanadigan tabiiy hudud sifatida belgilash uchun poydevor bo'lib, shu bilan birga mahalliy aholiga qo'shimcha daromad manbalarini va sanoat rivojlanishi tufayli bioxilma-xillikni yo'qotmaslikni ta'minlaydigan barqaror hayot tarzini yaratadi.**

Yaqindan boshlab, dengiz qurishi va tashlandiq harbiy baza ishini to'xtatgandan so'ng olimlar orolga kirishi uchun ruxsat berildi. Ammo, afsuski, brakonyerlar va qaroqchilar ham orolga kira boshladilar. Orolni saqlab qolish zarurligi va uning tarixiy ahamiyati yaqqol ko'rinish turibdi, lekin uning zaifligi ham ayon va bu sahro bastionining kelajakdag'i rivojlanishi muhokama qilinmoqda. Orol dengizi mintaqasi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'yнaydi, tabiiy gaz va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishga, shuningdek, dengizning qurigan tubiga va baliqchilar qishloqlariga tashrif buyurmoqchi bo'lgan sayyoohlarni jalb qilishga katta qiziqish bor. Boshqa tomonidan, noyob fauna va florani saqlab qolish uchun ushbu hududni himoya ostiga olishga da'vat etilmoqda.



O'rta Osiyoda Orol dengizi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz bilan sinonim bo'lib qoldi, biroq unda o'zini o'zi tiklash imkoniyati ham mavjud. Sobiq Uyg'onish oroli mintaqasi markazida joylashgan bo'lib u kamida 400 yil davomida yo'qolib ketish xavfi ostida turgan sayg'oqlarning yashash joyi bo'lgan.

Yaqin vaqtgacha orolga yetib borishning murakkabligi, uzoq yillar davomida yopiq harbiy hudud bo'lganligi sababli Uyg'onish orolining noyob biologik xilma-xilligi yaxshi holatda saqlangan.

**"Uyg'onish oroli dasturi: tabiatni muhofaza qilish va Orol dengizi mintaqasini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni va umuman O'zbekistonning biologik xilma-xilligini saqlash maqsadlarini faol targ'ib qiladi va qo'llab -quvvatlaydi".**

**Narzullo Oblomurodov, O'zbekiston Ekologik partiysi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi**



## Bizning “Uyg'onish oroli” dasturimiz quyidagilarga yo'naltirilgan:

**1. Orolda va unga tutash hududlarda qo'riqlanadigan tabiiy hududni yaratish.** Shu tarzda biz Ustyurning ijtimoiy-ekologik tizimining barqarorligini tiklaymiz. Muhofaza etiladigan tabiiy hududni tashkil etishning asosini tayyorlash va uni targ'ib qilish, Uyg'onish oroli hamda Ustyurt platosida biologik xilma-xillikning holati, qimmatliliqi to'grisida keng omma xabardorligini oshirish va orolning yovvoyi tabiatini saqlashga yordam beradi. Biz sayg'oqlarni flagman tur sifatida ko'rib, shu bilan birga orolning noyob fauna va florasini asrab-avaylab, himoya qilamiz.

**2. Mahalliy aholining tirikchiligini ta'minlashga ko'maklashish.** Uyg'onish oroli va uning atrofidagi tabiiy va madaniy qadriyatlardan foydalanib, Biz mahalliy aholi uchun yangi daromad imkoniyatlarini yaratishga va ishsizlik bilan kurashishga ko'maklashamiz. O'zbekiston turizmga alohida e'tibor qaratgan holda, Uyg'onish oroli va unga tutash hududlar mahalliy aholi uchun ishonchli va qimmatli daromad manbai va faxrga aylanib, biologik xilma-xillik va inson manfaatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

**3. Biologik xilma-xillikni yo'qotmaslik tamoyilini qo'llash.** Mintaqaviy infratuzilmani modernizatsiya qiladigan sanoatni rivojlantirish loyihalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda, biz biologik xilma-xillikni yo'qotmasdan, global tabiatni muhofaza qilish siyosatiga muvofiq bo'lishimizni ta'minlaymiz.

Bu harakatlar birgalikda olib borilsa, brakonyerlikni kamaytirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, shuningdek, davlat organlarini biologik xilma-xillikni himoya qilish bo'yicha yanada samarali choralar ko'rishga undaydi. Kompleks yondashuv Orol dengizi mintaqasining biologik xilma-xilligini saqlash va oshirishga yordam beradi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi orolda sayg'oq populyatsiyasi ravnaq topib, u xavfsiz harakatlanishi va mahalliy yangi ekotizimning flagmani sifatida tan olinishi mumkin.

**“Ishonchimiz komilki, “Uyg'onish oroli: tabiatni muhofaza qilish va Orol dengizi mintaqasini rivojlanishi” dasturi Orol dengizi mintaqasining tabiatini asrash uchun katta imkoniyatlar yaratadi”.**

**Fan doktori Baxtiyor Xolmatov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti direktori.**



## Hamkorlik yondashuvini qo'llash

Bizning Uyg'onish oroli dasturimiz hukumat, sanoat va jamoalarni birlashtiradi, bu hududni umidsizlik ramzidan umid va yangilanish ramziga aylantiradi.

**"Taklif qilinayotgan loyiha Qoraqalpog'istoniga sayyoohlarni jalb qilish salohiyatini ro'yobga  
chiqarishda bizga sezilarli yordam beradi".**

**Yelena Golysheva, O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi Turizmni rivojlantirish  
instituti direktori vazifasini bajaruvchi.**

2020 yilda O'zbekiston Barqaror taraqqiyot maqsadlarining milliy sharhini tayyorladi, unda "Orol dengizi mintaqasida suv, yer va energiya resurslarini asrash va ulardan samarali foydalanishga, shuningdek, tabiiy resurslarni tejash va biologik xilma-xillikni asrashga alohida e'tibor qaratildi" degan xulosa berilgan. Bizning loyihamiz barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun O'zbekistonning strategik ustuvor vazifalarini bevosita qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, "Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi to'g'risidagi O'zbekistonning milliy hisoboti"da ta'kidlanishicha, neft va gaz faoliyatini kengaytirish uchun markaziy mintaqaga bo'l mish Orol dengizi mintaqasida biologik xilma-xillikni asrash va tiklash Konvensiyaning majburiyatlarini bajarishning milliy ustuvor vazifasidir. Shu tarzda bizning dasturimiz biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha O'zbekiston milliy strategiyasiga bevosita hissa qo'shamdi.

Bundan tashqari, Bizning dasturimizda O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan va atrof-muhitni tiklash uning holatini yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish manfaatlarida tadqiqot ishlarni olib borish, tabiiy resurslar va aholi yashash shroitini yaxshilash faoliyatini rag'batlantiruvchi BMT Bosh Assambleyasining Orol bo'yicha rezolyutsiyasi maqsadlari to'liq aks ettirilgan.

Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi ushbu dastur Aichi maqsadlariga erishishga bevosita hissa qo'shishini tan oldi: bu biologik xilma-xillikni saqlash qadriyatlarini milliy va mahalliy taraqqiyotga, hamda kambag'allikni kamaytirish strategiyasi va rejalahtirish jarayonlariga integratsiyasini ta'minlash, shu bilan birga samarali boshqariladigan, ekologik jihatdan namunaviy va o'zaro bog'liq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar orqali mintaqaning saqlanishini ta'minlashga intilish orqali erishiladi.

**"Dastur Qoraqalpog'istonning ustuvor yo'nalishlariga aynan mos keladi, shuning uchun Biz  
dasturni mintaqaviy rivojlanish strategiyamizning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylantirish  
to'g'risida rasmiy shartnoma tuzdik".**

**Jusipbek Kazbekov, O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi  
raisining o'rribosari, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi raisining Orolbo'yи ekoliyasi va  
rivojlanishi bo'yicha sobiq birinchi o'rribosari.**

**Qo'shimcha ma'lumot olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring**

**Buni amalga oshirgan  
donorlarimizga minnatdorchilik  
bildiramiz**

